

ISSN 2181-5291

PSIXOLOGIYA

ILMIY JURNAL

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC JOURNAL

№ 1, 2025

www.buxdu.uz





The journal was registered with the certificate № 05-45 on February 25, 2011 at Bukhara Region Press and Information Administration of Uzbekistan Press and Information Agency

According to the resolution №201/3 as of December 26, 2013 of the Presidium of Supreme Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan the journal was included into the list of scientific journals in which scholarly articles on the scientific results of dissertations on Psychology must be published.

Address:

*200117, Buxoro city,
K.Murtazoyev street, 11
Bukhara State University
Editorial and publishing
Department
Phone: +998 (94) 837-18-38*

The journal is published 4 times a year

*Website: www.buxdu.uz
E-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz*

Jurnal O`zbekiston Matbuot va axborot agentiligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2011- yil 25-fevral № 05-45-soni guvohnoma bilan ro`yxatga olingan.

Jurnal O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2013-yil 26-dekabrdagi 2013-soni qarori bilan psixologiya fanlari bo`yicha dissertatsiya ishlari ilmiy natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo`lgan ilmiy jurnallar ro`yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili:

*200117, Buxoro shahri,
K.Murtazoyev ko`chasi, 11-uy
Buxoro davlat universiteti
“Tahririy-nashriyot” bo`limi
Tel: +998 (94) 837-18-38*

Jurnal 1 yilda 4 marta chiqadi.

*Website:
www.buxdu.uz
E-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz*

Журнал зарегистрирован Бухарским областным управлением агентства печати и информации Республики Узбекистан. Свидетельство № 05-45 от 25.02.2011г.

Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании решения ВАК №201/3 от 26 декабря 2013 года для получения учёной степени доктора психологических наук.

Адрес:

*город Бухара 200117,
улица М.Икбала, 11
Бухарский государственный
университет
Редакционный отдел
тел: +998 (94) 837-18-38*

Журнал выходит 4 раза в год.

*Website:
www.buxdu.uz
E-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz*



PSIXOLOGIYA

ILMIY JURNAL * НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

1-son 2025-yil. * Выпуск 1. 2025 год.

TAHRIR HAY'ATI – РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

BOSH MUHARRIR – ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: BAROTOV SH. R.

Psixologiya fanlari doktori, professor.

Xalqaro Psixologiya Fanlari Akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Действительный член (академик) Международной Академии психологических наук
MAS'UL KOTIB – ОТВ. СЕКРЕТАРЬ

Sayfullayeva N.Z. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

XAMIDOV O.X.

Buxoro davlat universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
SHOUMAROV G'.B.

Psixologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston
Respublikasi Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zosi
UMAROV B.M.

Psixologiya fanlari doktori, professor
KOZLOV V.V. (Rossiya)

Psixologiya fanlari doktori, professor
MALI'X S.B. (Rossiya)

Psixologiya fanlari doktori, professor
KOROBENNIKOV I.A. (Rossiya)

Psixologiya fanlari doktori, professor
KARIMOVA V.M.

Psixologiya fanlari doktori, professor
SAFOYEV N.S.

Psixologiya fanlari doktori, professor
BEKMURODOV M.B.

Sotsiologiya fanlari doktori, professor
KADIROV U.D.

Psixologiya fanlari doktori, professor
JABBOROV A.M.

Psixologiya fanlari doktori, professor
OLIMOV Sh.Sh.

Pedagogika fanlari doktori, professor
JUMAYEV R.G'.

Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
NISHONOV A.Z.T.

Psixologiya fanlari doktori, professor
NAZAROV A.M. Psixologiya fanlari doktori (DSc),
professor

IBODULLAYEV Z.R.

Tibbiyot fanlari doktori, professor
BEGMATOV A.S.

Falsafa fanlari doktori, professor

HUSEYNOVA A.A.

Falsafa fanlari doktori, professor

MUXAMEDOVA D.G.

Psixologiya fanlari doktori, professor

RUXIYEVA X.A.

Psixologiya fanlari nomzodi, professor

BAROTOVA D.SH.

Psixologiya fanlari doktori, dotsent

AKRAMOV V.R.

Tibbiyot fanlari doktori, dotsent

ZARIPOV G.T.

Texnika fanlari nomzodi, dotsent.

OSTONOV Sh.Sh.

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

RUSTAMOV Sh.Sh.

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

TILAVOV M.H.

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUHARRIRLAR – РЕДАКТОРЫ:

Usmanova M.N. – psixol.fan.nom., professor

Muxtorov E.M. – psixol.fan.nom., dotsent

Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Abuzalova M.K. - filologiya fanlari doktori, professor
Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc),
professor

TEXNIK MUHARRIRLAR – ТЕХ. РЕДАКТОРЫ:

Shirinova M.Sh., filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)



PSYCHOLOGY

SCIENTIFIC JOURNAL

Issue 1: 2025

EDITORIAL BOARD:

EDITOR-IN-CHIEF: BAROTOV SH. R.

Doctor of Psychology, professor, the member (academician) of International Academy of Psychological Sciences

EXECUTIVE SECRETARY: Sayfullaeva N.Z. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

XAMIDOV O.X.

Doctor of Economic Sciences, Professor,
The rector of Bukhara State University
SHOUMAROV G.B.

Doctor of Psychology, Professor, Full
member of the Academy of Sciences of the
Republic of Uzbekistan

UMAROV B.M.

Doctor of Psychology, Professor
The assistant of the editor-in-chief

KOZLOV V.V. (Russia)

Doctor of Psychology, Professor

MALIKH S.B. (Russia)

Doctor of Psychology, Professor
KOROBENNIKOV I.A. (Russia)

Doctor of Psychology, Professor
KARIMOVA V.M.

Doctor of Psychology, Professor
SAFOEV N.S.

Doctor of Psychology, Professor
BEKMURODOV M.B.

Doctor of Sociology, Professor
KADIROV U.D.

Doctor of Psychology, Professor
JABBOROV A.M.

Doctor of Psychology, Professor
OLIMOV Sh.Sh.

Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
JUMAEV R.G.

PhD in Political Sciences, Docent
NISHONOVA Z.T.

Doctor of Psychology, Professor
NAZAROV A.M.

Doctor of Psychology, Professor
IBODULLAEV Z.R.

Doctor of Medical Sciences, Professor

BEGMATOV A.S.

Doctor of Philosophy, Professor

HUSEYNOVA A.A.

Doctor of Philosophy, Professor
MUXAMEDOVA D.G.

Doctor of Psychology, Professor
RUXIYEVA X.A.

Candidate of Psychology, Professor
BAROTOVA D.SH.

Doctor of Psychology, Docent
AKRAMOV V.R.

Doctor of Medical Sciences, Docent
ZARIPOV G.T.

Candidate of technical sciences, Docent
OSTONOV Sh.Sh.

PhD of Psychology, Docent

RUSTAMOV Sh.Sh.

PhD of Psychology, Docent
TILAVOV M.H.

PhD of Psychology

EDITORS:

Usmanova M.N. – Candidate of Psychology,
Professor

Mukhtorov E.M. – Candidate of Psychology,
Docent

Raxmatova M.M. – Doctor of
Philosophy in Philological Sciences
(PhD), Docent

Abuzalova M.K. – Doctor of Philological
Sciences, Professor

Sobirova D.A. Doctor of Psychology,
Professor

TECHNICAL EDITORS:

Shirinova M.Sh., Doctor of
Philosophy in Philological Sciences
(PhD)



*Avlayev Orif Umirovich,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, psixologiya kafedrası
dotsenti, psixologiya fanlari doktori (DSc)*

O'ZBEKISTON AYOLLARINING LIDERLIK FAOLIYATI DINAMIKASIGA SOTSIAL INTELLEKTNING TA'SIRI MASALALARI TAHLILI

Annotatsiya. Oilaning tinchligi, xotirjamligi, yaqin qarindoshlik aloqalarining mustahkamligi ayollarning shirinso'zligi, oqilaligi, sarishtaligi hamda mehr-muhabbati va ularning ta'sirga bog'liqligi bilan izohlanadi. Ayol xonadonning suyukli sohibasi, mehribon ona, kuyunchak qiz, opa yoki singil, sarishta kelin deya ta'riflanadi. Shu bilan birgalikda bugungi kun ayoli jamiyatning barcha bo'g'inlarida, erkaklar bilan bir safda faoliyat olib boruvchi fidoyi xodim, oqila va odil rahbar sifatida ham o'z o'rniga ega fuqaro. Ushbu maqolada ayollarning liderlik faoliyati dinamikasiga ijtimoiy intellektning ta'siri masalalari Dj. Gilford tomonidan izohlangan ijtimoiy intellekt omillari konsepsiysi asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy intellekt, liderlik, psixologik determinat, shaxs fazilatlari, o'zaro ta'sir.

ANALYSIS OF THE INFLUENCE OF SOCIAL INTELLIGENCE ON THE DYNAMICS OF LEADERSHIP ACTIVITY OF UZBEK WOMEN

Abstract. The peace and quietness of the family, the strength of close kinship ties are explained by the sweetness, wisdom, cleanliness, and love of women and their dependence on influence. A woman is described as a beloved housekeeper, a loving mother, a loving daughter, a sister, and a clean bride. At the same time, today's woman has her place as a generous worker, a wise and fair leader, who works alongside men in all spheres of society. This article examines the impact of social intelligence on the dynamics of women's leadership. It is analyzed based on the concept of social intelligence factors, interpreted by Guilford.

Keywords: social intelligence, leadership, psychological determinant, person's personality, interpersonal influence.

АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ СОЦИАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ДИНАМИКУ ЛИДЕРСКОЙ АКТИВНОСТИ УЗБЕКСКИХ ЖЕНЩИН

Аннотация. Мир и покой семьи, прочность тесных родственных связей объясняются мягкостью, мудростью, чистоплотностью и любовью женщин и их зависимостью от влияния. Женщина описывается как любимая домохозяйка, любящая мать, любящая дочь, сестра и чистая невеста. В то же время сегодняшняя женщина занимает свое место как щедрый работник, мудрый и справедливый лидер, который работает вместе с мужчинами во всех сферах общества. В этой статье рассматривается влияние социального интеллекта на динамику женского лидерства. Анализ проводится на основе концепции факторов социального интеллекта, интерпретированной Гилфордом.

Ключевые слова: Социальный интеллект, лидерство, психологическая детерминанта, личность человека, межличностное влияние.

Oilaning bir butunligi, farzandlar, yaqin qarindoshlik aloqalarining samimiyligi va mustahkamligi ayollarning oiladagi o'rni, uning oqilaligi, xushmuomalaligi va mehr-u muhabbatining ta'sir kuchiga bog'liqligi bilan izohlanadi. Shu sababli ham ayolga ta'rif berilganda xonodon farishtasi, suyukli beka, mehribon ona yoki qiz, kuyunchak opa yoki singil deya ta'kidlanadi.

Shu bilan birga, jamiyatda, xotin-qizlar huquqlari bilan bog'liq holatlar dunyo mamlakatlarida hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan, eng muhim e'tibordagi masalalardan biri sifatida e'tirof etilishi tarixdan ma'lum. Tarixiy jihatdan aytadigan bo'lsak, asrlar davomida deyarli barcha jamiyatlarda erkaklar hukmronligi mavjud bo'lgan. Masalan, O'rta Osiyoda, xususan, O'zbekistonda asrlar davomida ayollarning jamiyat hayotidagi o'rni erkaklardan past bo'lishi, oilaviy hayotning uzlusiz davom etishi uchun ayol erkakning hokimiyatiga bo'ysunishi qonuniy deb hisoblangan. Aniqrog'i erkak ayolga egalik va uning ustidan hukmronlik qilishi, uning kelajagini ota, aka yoki er sifatida belgilashi kerak edi. Biroq azaldan o'zbek oilalarida ayolga hurmat, e'tibor yuqori bo'lgan bo'lsa-da, uning jamiyatdagi, ijtimoiy hayotdagi o'rni masalasi yillar davomida bahs-

munozaralarga sabab bo'lib kelgan. Chunki har qanday jamiyatda inson yashar ekan, asta-sekin uning qonuniyatlariga moslashib, singib boradi.

Bugungi tez rivojlanib borayotgan globallashuv jarayonida, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash[1] muhim ahamiyatga ega. Fan va texnikaning rivojlanishi, ma'lumotlar oqimining ortib borishi, jamiyatning barcha sohalarida faoliyat olib borayotgan insonlardan mavjud sharoitga moslashishda egiluvchanlikni talab qilmoqda. Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek inson o'zi yashab turgan davr, jamiyatning tartib-qoidalari va muhitiga moslashib boraveradi Bugun, nafaqat rivojlangan davlatlar balki O'zbekistonda ham ayollar erkaklar bilan barobar faoliyat olib bormaydigan biron bir soha yo'q. Ushbu maqolada biz O'zbekistonda ayollar liderlik faoliyati dinamikasiga ijtimoiy intellektning ta'siri masalasida olib borgan kuzatuvlarimizning dastlabki natijalari haqida fikr yuritmoqchimiz.

Ma'lumki, ijtimoiy intellekt - bu insonning boshqalar bilan samarali munosabatda bo'lishini ta'minlashga yordam beradigan bilim, ko'nikma va layoqatdir [3]. Ya'ni o'zimiz va boshqalarning xatti-harakatlarini tushunish, vaziyatga qarab harakat qilish qobiliyati shular jumlasidadir.

Muvaffaqiyatga erishish uchun esa, bugungi kunda o'z sohangizning professionali bo'lishning o'zi yetarli emas. Odamlar bilan munosabatlarni yaxshilash, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, o'z g'oyalarini jamiyatda targ'ib qila olish hozirgi zamon talabidir. Davlatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyatlar ayollarimizga "Takliflarni ilgari surishdan qo'rwmang va murakkab narsalarni oddiy so'zlar bilan tushuntirishni o'rganing" deb xitob qilyapti.

Nima uchun ijtimoiy intellektni liderlik faoliyati bilan bog'layapmiz. Bilamizki, ijtimoiy intellektda intuitsiya va shaxsiy sifatlar asosiy rolni o'ynaydi. Aslida, **ijtimoiy intellekt** insonni odamlar va kundalik vaziyatlarni qanchalik tushunishining ko'rsatkichi hisoblanadi. Odatiy hayotda bunday ko'nikmalarni **xushmuomalalik** va **sog'lom fikrlash** deb atashadi. Ya'ni ijtimoiy intellekt insonning o'zini, xulq-atvorini, boshqa odamlarning xatti-harakatlarini tushunish va o'zaro samarali munosabatlarni o'rnatish, maqsadlarga erishish qobiliyatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu qobiliyatni o'zingizda rivojlantirish orqali siz insonlarni yaxshi tushunish bilan birga, ular bilan yaxshi aloqalar o'rnatishingiz, jamiyatda o'z o'rningizni topgan holda, maqsadlaringizga muvaffaqiyatlari erishishingiz mumkin.

Liderlik faoliyatiga kelsak, liderlik tabiatan ijtimoiy hodisadir. U har qanday tashkilotda jamoani maqsad sari yetaklashga intilayotgan rahbar yoki xodim faoliyatida o'z aksini topadi. Liderlik faoliyati tashkilotda yuzaga kelgan muammolarni hal etish jarayonida jamoa a'zolari va rahbar o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy dinamikasida namoyon bo'ladi. Shaxsnинг biografik jihatlarida liderning jinsi uning yoshidan keyingi o'rinda turadigan o'ziga xos xususiyati sifatida qaraladi.

Shunday qilib, tashkilot rahbaryati, odatda, (a) tashkilot ichida va tashqarisida bir nechta ijtimoiy guruhlarni o'z ichiga oladigan va (b) ko'pincha qarama-qarshi bo'lgan ijtimoiy talab va tartiblarni hisobga oladigan yechimlarni topish uchun liderlik rolini talab qiladi. Bundan tashqari, liderlar ba'zida dastlab shubhali bo'lgan rahbar, hamkasb va bo'y sunuvchi shaxslarni muammolarni hal etish yo'llarining hayotiyligiga ishontirish va hal etish jarayonida ishtirok etadigan bir nechta tashkiliy guruylar faoliyatini muvofiqlashtirish orqali harakatni amalga oshirishlari kerak. Niroyat, liderdan muammoni samarali hal qilish ishlarini, ushbu turli ijtimoiy guruhlarning fikr-mulohazalari orqali amalga oshirilishini nazorat qilishni talab qiladi. Tashkiliy liderlikning o'ziga xos ijtimoiy integratsiyasi printsipial jihatdan liderning samaradorligi muammolarni hal qilishda va ularni murakkab tashkiliy dinamikada amalga oshirishda ijtimoiy dilemmalardan qanchalik yaxshi o'tishlari bilan belgilanadi.

Tadqiqotimizning maqsad va vazifalariga muvofiq ayol lidernarning sotsial intellekti bilan liderlik kompetensiyasi ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqa mezonlar ishtirokida xoli holda tadqiq etishga erishildi. Bunda liderlik faoliyati dinamikasida sotsial intellektning emotSIONAL intellekt, individuallikning formal-dinamik jihatlaridan ajratilgan holdagi ifodasini o'rganishga erishildi. Natijalar faktorli tahlil usuli asosida qayta ishlanib, sotsial intellekt bilan liderlik salohiyati tarkibining ochilish va rivojlanish qonuniyatlarini tavsiflovchi asosiy faktorlarni aniqlashga erishildi.[3]

1-jadval.

Ayollarning sotsial intellekti bilan liderlikni shartlovchi yetakchi psixologik determinantlar (umumiyl holat)

Jihatlar	Faktorlar				
	1	2	3	4	5
Shaxsnинг o'ziga xos xususiyatlari	0,892				
Ijtimoiy ta'sir etuvchanlik	0,785				
Shaxsnинг umumiyl xususiyatlari	0,617				

Tashkilotchilikka qobiliyatilik	0,613				
Shaxsnинг yo‘nalganligi	0,531				
Fuqarolik burchi		0,665			
Hayotiy ustanovka		0,660			
Boshqa odamni psixologik jihatdan o‘ziga yaqin qabul qilish qobiliyati		0,629			
Shaxs yetukligi		0,571			
Erishganlik motivatsiyasi		0,547			
Muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish			0,520		
Noverbal xulq-atvorni tushunish				0,565	
Shaxslararo o‘zaro ta’sir					0,510
Verbal ekspressiyani tushunish					0,565

Faktorli tahlilning dastlabki natijalari bo‘yicha ayollar liderligida sotsial intellektning o‘rnini masalasidagi umumiy ko‘rinishda beshta yetakchi faktor aniqlandi. Faktorlarning birinchisida shaxsnинг o‘ziga xos xususiyatlari (0,892), ijtimoiy ta’sir etuvchanlik (0,785), shaxsnинг umumiy xususiyatlari (0,617), tashkilotchilikka qobiliyatilik (0,613), shaxsnинг yo‘nalganligi (0,531) "**Umumiy liderlik omillari**" nomi bilan bosh faktor sifatida shaxsnинг xislat va fazilatlari bo‘lib tarkib topishi aks etmoqda.

Ikkichni omilning markaziy jihatlari bo‘lib ayollar liderligini izohlash manbai sifatida fuqarolik burchi (0,665), hayotiy ustanovka (0,660), boshqa odamni psixologik jihatdan o‘ziga yaqin qabul qilish qobiliyati (0,629), shaxs yetukligi (0,571), erishganlik motivatsiyasi (0,547) "Shaxsnинг fuqarolik burchi bilan hayotiy ustanovkalar" chiqdi. Bundan ko‘rinadiki, ayollar liderligida fuqarolik burchini his etish va shaxsiy hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lishi hisobiga ayollar o‘zining liderlik darajasini belgilashi va zarur maqsadlarga erishishi mumkin ekan. Shunga ko‘ra "**Fuqarolik burchini his etish va shaxsiy hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lish**" deb nomlandi.

Uchinchchi omilning tahlilida esa, ayollar liderligini belgilovchi omil bu "Muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish" (0,520) alohida psixologik determinant sifatida ayollar liderligi uchun munosabat va muloqotni tashkil etishda muhim sanaladi. Shu sababli faktorning xususiyatiga ko‘ra shaxsda shaxslararo munosabat xarakteriga ko‘ra bir-biri bilan suhbatlashadigan insonlarni tez va yaxshi tushunishga moyillik, insonlar muloqotda har qanday insonlar bilan til topishib ketishini ta’minlar ekan. Shu bois, faktorni "**Muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish**" tarzida nomlash muhimdir.

To‘rtinchi faktorni noverbal xulq-atvorni tushunish (0,565) jihatni tashkil etdi. Bu esa, shaxslarning noverbal xulq-atvorni tushunishi ayollar liderligida aolhida qobiliyat sifatida tarkib topishni taqozo etadi. Faktorni "**Noverbal xulq-atvorni tushunish**" tarzida nomlash o‘rinlidir.

Beshinchi faktorni esa, shaxslararo o‘zaro ta’sir (0,510) va verbal ekspressiyani tushunish qibiliyati tashkil etgan (0,565). Ushbu faktorning qayd etishicha, shaxsnинг kamoloti uchun doimiy ravishda ushbu ikki jihat o‘zaro aloqadorlikda aks etishi kerak. Faktorni "**Ayollar liderligida verbal ekspressiya va shaxslararo ta’sir mexanizmi**" deb ifodalandi.

Navbatdagi tahlilda esa, ayollarning sotsial intellekti darajasiga ko‘ra sotsial intellekt bilan ayollar liderligi o‘rtasidagi munosabatlarning faktorli tahlili amalga oshirilgan. Faktorli tahlil natijalari navbatdagi 2-jadvalda keltirilgan.

Faktorli tahlilga ko‘ra sotsial intellekt darjasini o‘rtachadan past bo‘lgan ayollarda sotsial intellekt bilan ayollar liderligi jihatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni shartlovchi uchta omil aniqlandi.

2-jadval.

Sotsial intellekt darjasini o‘rtachadan past ayollarda liderlikni shartlovchi psixologik determinantlar

Jihatlar	Faktorlar		
	1	2	3
Shaxsnинг o‘ziga xos xususiyatlari	0,866		
Shaxsnинг umumiy xususiyatlari	0,777		
Shaxsnинг yo‘nalganligi	0,731		
Hayotiy ustanovka		0,749	

Boshqa odamni psixologik jihatdan o'ziga yaqin qabul qilish qobiliyati		0,692	
Shaxslararo o'zaro ta'sir		0,868	
Noverbal xulq-atvorni tushunish		-0,819	
Muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish			0,791
Noverbal ekspressiyani tushunish			-0,638

Ushbu toifa sinaluvchilarning sotsial intellekti bilan ayollar liderligini tavchiflovchi birinchi faktor shaxsning o'ziga xos xususiyatlari (0,866), shaxsning umumiy xususiyatlari (0,777), shaxsning yo'nalganligi (0,731) asosiy kamolot jihatlari sifatida kuzatildi. Faktorning asosiy "**Shaxs fazilatlari**" deb nomlandi. Chunki faktorga ko'ra ayollar liderligini faqat ushbu kamolotni belgilovchi omillar ifodalab bermoqda.

Ikkichni faktorni esa, ayollarning liderligi va sotsial intellektini shartlovchi jihatlarga aloqador hayotiy ustanovka (0,749), boshqa odamni psixologik jihatdan o'ziga yaqin qabul qilish qobiliyati (0,692), shaxslararo o'zaro ta'sir (0,868), noverbal xulq-atvorni tushunish (-0,819) kabi yuqori yuklamali koefitsiyentlar tashkil etdi. Mazkur faktorda ayollar liderligida noverbal xulqni tushunish ko'pincha insonlarni tushunishning qiyin jihatni ekanligini tasdiqlamoqda. Ammo ayollar liderligida shaxslararo ta'sir esa, muhim hisoblanmoqda. Shu sababli asosiy psixologik determinantni "**Shaxslararo o'zaro ta'sir**" deb ataldi. Sotsial intellektning ushbu jihatni o'rtachadan past sotsial intellekt darjasidagi ayollarda atrofdagilar bilan o'zaro munosabatga kirishishga turki beruvchi ekan.

Uchinchi faktor esa, muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish (0,791), noverbal ekspressiyani tushunish (-0,638)dan iborat. Ushbu o'rinda noverbal ekspressiyani tushunish ko'p hollarda ayollar liderligida to'siq bo'layotganligi ko'rinoqda. Shu sababli, salbiy ahamiyatga ega bo'lsa-da, ushbu faktorni "**Noverbal ekspressiyani tushunmaslik**" deb nomladik.

Sotsial intellekt darjasasi o'rtacha bo'lgan shaxslarning sotsial intellekti bilan ayollar liderligining korrelyatsion munosabatlari o'rganildi. Ushbu tadqiqot natijalari quyidagi 3-jadvaldan o'rin olgan.

Faktorli tahlilga ko'ra sotsial intellekt darjasasi o'rtacha bo'lgan ayollarning liderligini tavsiylovchi to'rtta yetakchi determinantlar aniqlangan.

Birinchi faktor tuzilmasi shaxsning o'ziga xos xususiyatlari (0,819), shaxslararo o'zaro ta'sir (0,770), shaxsning umumiy xususiyatlari (0,761), shaxsning yo'nalganligi (0,727) va tashkilotchilikka qobiliyatlichkeit (0,705) dan iborat yuqori vaznli koefisiyentlardan tashkil topdi.

3-jadval.

Sotsial intellekt darjasasi o'rtacha bo'lgan ayollarda liderlikni shartlovchi psixologik determinantlar

Jihat	Faktor			
	1	2	3	4
Shaxsning o'ziga xos xususiyatlari	0,819			
Shaxslararo o'zaro ta'sir	0,770			
Shaxsning umumiy xususiyatlari	0,761			
Shaxsning yo'nalganligi	0,727			
Tashkilotchilikka qobiliyatlichkeit	0,705			
Erishganlik motivatsiyasi		0,775		
Boshqa odamni psixologik jihatdan o'ziga yaqin qabul qilish qobiliyati		0,726		
Muloqot ishtirokchisining fikrlarini		0,718		
Shaxs yetukligi			0,854	
Hayotiy ustanovka			0,767	
O'z meniga munosabat				
Noverbal xulq-atvorni tushunish				-0,730
Ijtimoiy ta'sir etuvchanlik				0,707
Verbal ekspressiyani tushunish				0,514

Ushbu faktorlar o'rtachadan past sotsial intellekt darjasidagi singari lider ayol uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxs xususiyatlarini – muloqotmandlik, tashabbuskorlik, harakatchanlik, zukkolik, sinchkovlik shaxslararo munosabatda o'zga insonlar bilan o'zaro munosabat o'rnatish, ularning xulq-atvori va

xatti-harakatlarini anglash hamda o'zining shaxsiy fazilati orqali ta'sir ko'rsatuvchanligini tavsiflaydi. Shunga ko'ra, faktorda sotsial intellektning shaxslararo o'zaro ta'sir jihatni shaxsning yo'nalganligi, tashkilotchilik qobiliyati va shaxs umumiy xususiyatlari bilan ichki aloqadorlikni o'rnata olgan. Faktorning mazmuniy ifodasi "**Shaxslararo o'zaro ta'sir**" deb nomlashni taqazo etdi. O'rtachadan past sinaluvchilarga nisbatan o'rtacha sotsial intellekt darajali ayollar liderligining o'ziga xos tomonidan biri sifatida shaxslararo ta'sir etuvchanlikni empirik jihatdan ko'rsatmoqda.

Ikkinci faktordagi ustuvor jihatlarda erishganlik motivatsiyasi (0,775), boshqa odamni psixologik jihatdan o'ziga yaqin qabul qilish qobiliyati (0,726), muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish (0,718)dan iborat yuqori korrelyatsiyali koeffitsiyentlar o'rinni oldi. Ushbu faktorda ham ayollar sotsial intellekt va liderligini tavsiflovchi psixologik determinantlar o'tasida bog'liqliklar kuzatildi. Faktordagi ustuvor jihatlarning mazmuni va o'zaro bog'liqligiga asoslanib, ayollarning hayotiy maqsadlarga ega bo'lishi, empatiya va muloqot ishtirokchilarni tushunish qobiliyatini inobatga olish zarur. Bunga ko'ra faktorni "**Yo'nalganlik, empatiya va muloqotmandlik**" tarzida nomlash lozim topildi.

Uchinchi faktorda esa, ayollar liderligining umumiy yetukligi (0,854) va hayotiy ustanovka (0,767)lardan iborat yuqori yuklamalni koeffitsiyentga ega jihatlar mujassamlashgan. Ushbu faktorda ayollar liderligida aql-zakovat tuyg'u, hissiy muvozanat, mulohazakorlikdan ustunligi bilan ajralib turishi umumiy yetuklik darajasini belgilab beradi. Faktorning mazmuniga muvofiq "**Shaxsning umumiy yetuklik darjasasi**" deb nomladik.

To'rtinchi faktorda esa, noverbal xulq-atvorni tushunish (-0,730), ijtimoiy ta'sir etuvchanlik (0,707), verbal ekspressiyani tushunish (0,514)dan iborat bo'ldi. Uyshbu faktorda ayollar liderligi bilan sotsial intellekt jabhalari o'tasida ham salbiy, ham ijobiy bog'lanish mavjuddir. Bundan ko'rinadiki, sotsial intellektning bir elementi ayollar liderligining o'sishiga, ikkinchisi esa, uning pasayishiga olib kelar ekan. Noverbal xulq-atvorni tushunish qobiliyatining yo'qligi shaxsda ijtimoiy ta'sir etuvchanlik sifatini shakllantirmasligi va aksincha, verbal ekspressiyani tushunish esa, ijtimoiy ta'sirchanlikning kamol topishiga ko'malashar ekan. Natijada faktorni mazmuniga mos ravishda uni "**Ayollar liderligidagi ziddiyatlar**" tarzida ifodalash lozim topildi.

Amaliy o'rganish natijalarining navbatdagi sahifalari sotsial intellekt darjasini yuqori bo'lgan ayollarning liderligini kafolatlovchilarini aniqlashga qaratildi (4-jadval).

4-jadval.

Sotsial intellekt darjasini yuqori bo'lgan ayollarda liderlikni shartlovchi psixologik determinantlar

Jihatlar	Faktorlar					
	1	2	3	4	5	6
Tashkilotchilikka qobiliyatlilik	0,780					
Shaxslararo o'zaro ta'sir	0,768					
Shaxsning umumiy xususiyatlari	0,767					
Shaxsning yo'nalganligi	0,703					
Muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish	0,650					
Shaxsning o'ziga xos xususiyatlari		0,817				
Noverbal xulq-atvorni tushunish		0,775				
Fuqarolik burchi			0,809			
O'z meniga munosabat			0,689			
Ijtimoiy ta'sir etuvchanlik				0,858		
Verbal ekspressiyani tushunish		0,534		0,583		
Erishganlik motivatsiyasi					0,798	
Hayotiy ustanovka						0,680
Shaxs yetukligi						0,669
Tashkilotchilik qobiliyatidagi individuallik						0,776
Shaxslararo o'zaro ta'sir						0,607

Sotsial intellekt darajasi yuqori bo‘lgan shaxslarning kamoloti bilan bog‘liq faktorlar tahlilida oltita yetakchi determinantlar kuzatildi. Bir jihatdan ushbu faktorlar miqdori, ikkinchidan, sotsial intellekt bilan ayollar liderligini tavsiflovchi komponentlardagi korreyatsiyalar o‘ziga xoslikni ko‘rsata oldi.

Aniqlangan birinchi psixologik yetakchi determinantlar orasidagi tashkilotchilikka qobiliyatililik (0,780), shaxslararo o‘zaro ta’sir (0,768), shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari (0,767), shaxsning yo‘nalganligi (0,703), muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish (0,650) jihatlari faktorning tarkibiy tuzilmasini o‘zida aks ettigan. Faktorda ham sotsial intellekt komponenti bilan ayollar liderligi jabhalari o‘rtasida yaqqol bog‘lanishlar kuzatildi.

Oqibatda shaxslararo o‘zaro ta’sirchanlik qobiliyatiga ega ayollarda tashkilotchilik qobiliyati tarkib topishi hamda e’tiqodlilik, sobitqadamlilik, hamiyatlilik, beg‘arazlik, haqgo‘ylik, kamtarlik, adolatlilik, e’tiqodlilik, sobitqadamlilik, beg‘arazlik, haqgo‘ylik, kamtarlik, adolatlilik, shaxsiy fazilatlarini o‘zlashtirishi mumkin. Fazilatlarni o‘zlashtirishi esa, shaxsning muloqotdagi sherigini tushunishi mumkinligi bilan ham bog‘liq. O‘zga insonlar bilan munosabatga kirishish, o‘z navbatida shaxsning o‘zini tushunishiga ham undaydi. Faktordagi jihatlarning vaznini hisobga olgan holda bu faktorga **“Ayollar liderligida sotsial intellektning ta’sir diapazonlari”** degan nomni tanlandi.

Ikkinci faktor shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari (0,817), noverbal xulq-atvorni tushunish (0,775), verbal ekspressiyani tushunish (0,534)dan iborat. Ushbu faktor tarkibida sotsial intellektning ham verbal, ham noverbal xulq-atvorni tushunishga xizmat qiluvchi jihatlari mujassamlashganganligi shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarni kamol topishiga turki beradi, ya’ni o‘zgalarning psixologik xususiyatlari va holatlarini tez ilg‘ashga qobililik, o‘zgalar ichki kechinmalari va hislarini o‘zinikiday qabul qilishga moyillik, o‘zgalar kechinmalari, xatti-harakatlari va xulq-atvorini tahlil etishga qobiliyatililik, o‘zini xayolan o‘zganining o‘rniga qo‘ya bilish uquvchanligini tarkib toptiriga xizmat qiladi. Mantiqiy mulohazalar faktorni **“Verbal ekspressiya va noverbal xulq-atvorni tushunish – shaxs xususiyatlarini shakllantiruvchi determinant”** tarzida qayd etishga sabab bo‘ldi.

Uchinchi faktorni fuqarolik burchi (0,809), o‘z meniga munosabat (0,689) va beshinch faktorni erishganlik motivatsiyasi (0,798), hayotiy ustanovka (0,680) va shaxs yetukligidan (0,669) yuqori yuklamali faktorlar tshkil etdi. Ikkala faktorning tuzilmasida shaxsning psixologik yetukligini tavsiflovchi jihatlar aks etgan. Ikkala faktorning tarkibiy tuzilmasidagi yuqori yuklamali koefitsiyentlar ayollar liderligining umumiyligi tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ularning o‘zaro aloqasi hamda ijobjiy ichki bog‘liqliklari ayollar liderligiga ta’sir ko‘rsatishi tabiiydir. Izohlarga asoslanib, ushbu uchinchi va beshinch faktorlarni birlashtirgan holda sodda tarzda **“Ayollar liderligining tarkibiy jihatlari”** deb nomlandi.

To‘rtinchi faktorning tarkibini ijtimoiy ta’sir etuvchanlik (0,858) va verbal ekspressiyani tushunish (0,583) tashkil etmoqda. Verbal ekpressiyani tushunish qobiliyati shaxsda insonlar munosabatlarining tabiatini va qirralariga yuqori sezuvchanlik bo‘lib, bunda ular ma’lum bir vaziyat, o‘ziga xos munosabatlar kontekstida odamlarning bir-biriga aytganlarini tez va to‘g‘ri tushunadilar. Insonlarning muloqot vaziyatlarida turli suhbatdoshlar bilan tegishli muloqot ohangini topa oladilar va har xil rolli vaziyatlarga kirisha oladilar. Shunga ko‘ra faktorni **“Verbal ekspressiyani tushunish – ijtimoiy ta’sir vositasi”** deb atash o‘rinli.

Oltinchi faktorni tashkilotchilik qobiliyatidagi individuallik (0,776) va shaxslararo o‘zaro ta’sir (0,607) tashkil etgan. Tahlil qilinayotgan faktorda deyarli tahlil etilgan tadqiqotning bir qator empirik tahlillarida biror bir tarzda shaxsning tashkilotchilik qobiliyatining individuallashuvi bilan sotsial intellektning tarkibiy jihatlarida bog‘lanish kuzatilmagan edi. Aniqlangan oltinchi faktordagi bog‘lilikka tayanib, uni **“Shaxslararo o‘zaro ta’sir tashkilotchilik qobiliyatining individuallashuvi sababi”** deb nomlashga turtki berdi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, tadqiqotning ushbu bosqichidagi faktorli tahlil natijalari sotsial intellekt darajalari ayollar liderligiga ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik determinant vazifasini bajarishini empirik asosladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayollarning liderlik qobiliyatları ularning shaxsiy fazilatlari, tashkilotchilik qobiliyati, shaxslararo o‘zaro ta’sirchanlik, va verbal va noverbal xulq-atvorni tushunish kabi yuqori darajadagi psixologik faktorlar bilan chambarchas bog‘liq. Shaxslarning psixologik yetukliklari va ijtimoiy ta’sir etuvchanligi ham muhim omillar bo‘lib, ular ayollar liderligining samaradorligini oshiradi. Umuman olganda, bu faktlar ayollarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda sotsial intellektning markaziy rolini ta’kidlashga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.(2021). Strategies of New Uzbekistan. Tashkent. Uzbekistan. p.464.
2. Авлаев, О. (2022). Ijtimoiy intellekt – shaxsni rivojlantiruvchi omil. Архив научных исследований, 2(1).

Мундарижса/Содержание/Contents

№			<i>bet</i>
			<i>cmp</i>
			<i>page</i>
1	<i>Fayziyeva Umida Asadovna</i>		
	<i>Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy sifatlarning rivojlanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar</i>		3
	Социально-психологические факторы, влияющие на развитие профессиональных качеств будущих учителей		
2	<i>Tilavov Muxtor Hasan o‘g‘li</i>		8
	<i>Zamonaviy jamiyatda psixologik xizmatlar tizimini takomillashtirishning innovatsion usullari</i>		
	Инновационные методы совершенствования системы психологической службы в современном обществе		
	Innovative methods of improving the system of psychological services in modern society		
3	<i>Asranbayeva Munojatxon Halimjanovna</i>		13
	<i>O‘quv jarayonida talabalarda hissiy zo‘riqishlar namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari</i>		
	Психологические особенности эмоционального напряжения у студентов в ходе учебного процесса		
	Psychological features of emotional stress in students during the learning process		
4	<i>Avlayev Orif Umirovich</i>		18
	<i>O‘zbekiston ayollarining liderlik faoliyati dinamikasiga sotsial intellektning ta’siri masalalari tahlili</i>		
	Analysis of the influence of social intelligence on the dynamics of leadership activity of uzbek women		
	Анализ влияния социального интеллекта на динамику лидерской активности узбекских женщин		
5	<i>Badritdinova Madina Baxromovna</i>		25
	<i>O’smirlarda qo’rquv tufayli yuzaga keladigan emotsional zo‘riqishlarni bartaraf etish usullari</i>		
	Методы устранения эмоционального напряжения у подростков, обусловленного страхом		
	Methods of eliminating emotional stress in adolescents due to fear		
6	<i>Bo‘riyeva Mahbuba Shavkatovna</i>		30
	<i>Oilalardagi ajrim holatlarining ijtimoiy-psixologik sabablari</i>		
	Социально-психологические причины разделения семьи		
	Socio-psychological causes of family separation		
7	<i>Datkayev Umidjon Karimjon o‘g‘li</i>		35
	<i>O‘quv faoliyatida kursantlarning emotsional zo‘riqishlarini psixologik jihatdan o‘rganish</i>		

	Психологическое изучение эмоциональных напряжений курсантов во время учебной деятельности Psychological study of emotional stress in cadets during learning activities	
8	<i>Djadigerova Gulnaz Maratovna</i>	39
	Pedagogik psixologiyaning zamonaliv yo‘nalishlari va uning ta’limdagi o‘rni va ahamiyati	
	Современные направления педагогической психологии, ее место и значение в образовании	
	Modern directions of pedagogical psychology and its place and significance in education	
9	<i>Eshnayev Nortoji Jumayevich</i>	43
	Talabalarning intellekti va kasbiy yo‘nalganligini psixologik tadqiq etilishi otmlarda mobil mutaxassis tayyorlash samaradorligining omili sifatida	
	Психологическое исследование интеллекта студентов и профессиональной ориентации как фактор эффективности подготовки мобильных специалистов	
	Psychological research of students' intelligence and professional orientation as a factor of effectiveness of training mobile specialists	
10	<i>G’aniyev Axrorjon Alisher o’g’li</i>	47
	Integrativ moslashuv modeli: migrantlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi va akkulturatsiya dinamikasi	
	Integrative adaptation model: socio-psychological adaptation and acculturation dynamics of migrants	
	Интегративная модель адаптации: социально-психологическая адаптация и динамика аккультурации мигрантов	
11	<i>Hamroyeva Dilfuza Rahmatullayevna</i>	55
	O’smirlardagi addektiv xulq psixodiagnostika va psixokorreksiyasi	
	Осмерлардаги аддективные поведения психодиагностика и психокоррекция	
	Psychodiagnostics and psychocorrection of addictive behavior in adolescents	
12	<i>Ibragimova Odina Kamoldinovna</i>	59
	Maktabgacha yoshdagи bolalarning shaxslararo munosabatlar diagnostikasi	
	Diagnostics of interpersonal relationships in preschool children	
	Интерперсональность детей дошкольника диагностика отношений	
13	<i>Ismatova Halovat Baxtiyorovna</i>	65
	O’smirlarda destruktiv xulqning psixologik asoslari: ichki va tashqi omillar	
	Психологические основы деструктивного поведения у подростков: внутренние и внешние факторы	
	Psychological foundations of destructive behavior in adolescents: internal and external factors	
14	<i>Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna</i>	69
	O‘quvchi va talabalarda stressga barqarorlikni oshirishda lokus nazorat shakllari va shaxs hayotiy pozitsiyalarining o‘rni	